

CHET TILINI BILISH DARAJASINI BAHOLASH KO'P DARAJALI TEST FORMATI UCHUN BAHOLASH MEZONLARIGA O'ZGARTIRISH KIRITISH

Bilimni baholash agentligi Ilmiy-metodik kengashining 2023-yil 16-mart kuni o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishida Chet tilini bilish darajasini baholashning ko'p darajali test formati uchun baholash mezonlariga o'zgartirish kiritish masalasi muhokama qilindi.

Tinglab tushunish hamda o'qish bo'limlari bo'yicha natijalar Rasch metodi asosida hisoblanadi hamda quyidagi formula yordamida standartlashtiriladi:

$$\theta_1 = \frac{\theta - \mu}{\sigma}$$

- θ – Rasch metodi bilan hisoblangan qobiliyat;
- μ – o'rta qiymat;
- σ – standart tafovut.


Olingan ballar quyidagi formula yordamida 100 balli standart shkalaga keltiriladi:

$$T = \theta_1 * 10 + 50$$

Bunda:

- T – standart ball;
- θ_1 – Rasch metodi bilan hisoblangan qobiliyat;
- 10 – standart tafovut;
- 50 – o'rta qiymatni ifodalaydi.

100 balli shkalada CEFR darajalari quyidagicha taqsimlanmoqda:



Chet tilini bilish darajasini baholash test tafsilotlarida CEFRning eng yuqori C2 darajasiga mos keladigan topshiriqlar ko'zda tutilmaganligi uchun standart shkalaning eng yuqori bali 75 ball sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunda, Rash metodi yordamida hisoblangan qobiliyat ballari standart ballarga aylantirilganda, +2.5 logit qiymatdan yuqori barcha natijalar uchun 75 ball hisoblanadi.

Yozma ish va gapirish bo‘limlari bo‘yicha bilimlar baholash mezonlari yordamida baholanadi.

Yozma ish bo‘limidagi har bir topshiriq uchun alohida baholash mezonlari yordamida baholanadi. 1-topshiriqning umumiy balldagi ulushi 33%ni (12 ball), 2-topshiriqning umumiy balldagi ulushi 67%ni (24 ball) tashkil etadi.

Gapirish ko‘nikmasida esa topshiriqlarning 3 turi bo‘yicha umumlashgan baho qo‘yiladi.

Yozma ish va gapirish bo‘limlarining har birida maksimal ball 75 balldan iborat.

Ekspertlar tomonidan qo‘yilgan ballarning o‘rta arifmetigi quyidagi shkala bo‘yicha yakuniy bahoga aylantiriladi:

Umumiy ball	Yakuniy baho	Umumiy ball	Yakuniy baho
35.1-36.0	75	16.1-16.5	42
34.1-35.0	74	15.6-16.0	41
33.1-34.0	73	15.1-15.5	40
32.6-33.0	72	14.6-15.0	39
32.1-32.5	71	14.1-14.5	38
31.6-32.0	70	13.6-14.0	37
31.1-31.5	69	13.1-13.5	36
30.6-31.0	68	12.6-13.0	35
30.1-30.5	67	12.1-12.5	34
29.1-30.0	66	11.6-12.0	33
28.1-29.0	65	11.1-11.5	32
27.1-28.0	64	10.6-11.0	31
26.6-27.0	63	10.1-10.5	30
26.1-26.5	62	9.6-10.0	29
25.6-26.0	61	9.1-9.5	28
25.1-25.5	60	8.6-9.0	27
24.6-25.0	59	8.1-8.5	26
24.1-24.5	58	7.6-8.0	25
23.6-24.0	57	7.1-7.5	24
23.1-23.5	56	6.6-7.0	23
22.6-23.0	55	6.1-6.5	22
22.1-22.5	54	5.6-6.0	21
21.6-22.0	53	5.1-5.5	20
21.1-21.5	52	4.6-5.0	19

20.6-21.0	51	4.1-4.5	18
20.1-20.5	50	3.6-4.0	17
19.6-20.0	49	3.1-3.5	16
19.1-19.5	48	2.6-3.0	15
18.6-19.0	47	2.1-2.5	14
18.1-18.5	46	1.6-2.0	13
17.6-18.0	45	1.1-1.5	12
17.1-17.5	44	0.6-1.0	11
16.6-17.0	43	0.1-0.5	10

Talabgorning bilimi qaysi darajaga mos kelishini aniqlash uchun testning 4 bo‘limi bo‘yicha o‘rtacha ball hisoblanadi va yakuniy natijalar quyidagi shkala bo‘yicha e‘lon qilinadi:

Daraja	Umumiy ball	To‘g‘ri javoblar tahminiy soni (tinglab tushunish va o‘qish bo‘limlari)
C1	65-75	28-35
B2	51-64	18-27
B1	38-50	10-17
B1 dan quyi	0-37	0-9

Yuqoridagi o‘zgarishlar 2023-yil mart oyida o‘tkaziladigan imtihonlardan boshlab amaliyotga joriy etilishi belgilandi.